

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA OT SO'Z TURKUMINI O'RGATISH METODIKASI.

Safarboyeva Munajat Abdusharip qizi

*Nukus DPI Ellikqal'a pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalish 2-bosqich talabasi*

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0008-2428-485X>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda ot so'z turkumini o'rgatish metodikasi hamda uning o'quvchilarning grammatik bilimlarini rivojlantirishdagi o'rni va samarali o'qitish usullari yoritilgan. Boshlang'ich sinflarda ot so'z turkumini o'rgatish bolalarning til madaniyatini rivojlantirish, nutq qobiliyatini oshirish, lug'at boyligini oshirish va grammatik ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ot so'z turkumini o'qitishda qo'llaniladigan asosiy metodlar – kuzatish, ko'proq metod orqali o'yin texnologiyalari, interfaol usullar va vizual vositalardan samarali foydalanish haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, ot so'z turkumini o'rgatishda duch kelinadigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ham tahlil qilinadi. Mazkur maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilari, tilshunoslar va ta'lim sohasida tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, ot so'z turkumi, grammatik bilim, o'qitish metodikasi, interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari, lingvistik kompetensiya, pedagogik yondashuv, til o'rgatish, nutq madaniyati, ta'lim texnologiyalari.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarning til ko'nikmalarini shakllantirish, yozuvda uchraydigan kamchiliklarni bartaraf etish, nutqida kamchiligi bor bolalar bilan ko'proq shug'ullanish hamda grammatik bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlashda asosiy poydevor hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'quvchilar turli so'z turkumlari, jumladan, mustaqil so'z turkumi ot, sifat, son, olmosh, fe'l so'z turkumi bilan tanishadilar. Ushbu maqolada ko'proq ot so'z turkumi bo'yicha ilmiy ish olib boramiz. Chunki ot – bu predmet va hodisalarga nom beruvchi asosiy so'z turkumlaridan biri bo'lib, o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda ot so'z turkumini o'qitish samarali metodika asosida olib borilishi lozim.[1]

Ot so'z turkumining o'quv jarayonidagi ahamiyati

O'quvchilar uchun tilshunoslikning boshlang'ich tushunchalarini o'zlashtirishda ot so'z turkumi eng muhim bo'limlardan biri hisoblanadi.

- ot: atrof-muhitni anglash va nomlashda asosiy vosita hisoblanadi;

- o'quvchilarning lug'at boyligini oshiradi;
- nutq va yozuv madaniyatini shakllantirishga yordam beradi;
- grammatik bilimlarning shakllanishida asosiy o'rin tutadi.

Shuningdek, ot so'z turkumi bolalarga boshqa so'z turkumlarini o'zlashtirishda ham muhim tayanch bo'lib xizmat qiladi. Ot so'z turkumini anglamay turib, boshqa so'z turkumi o'tilishi noto'g'ri, sababi, ot so'z turkumi borliqdagi barcha jonli va jonsiz predmetlarga asos bo'la oladi.

Ot so'z turkumini o'rgatishning samarali metodlari

Mashq: O'quvchilarga atrof-muhitdan biror predmet yoki jonli mavjudot tanlash va uni tavsiflab berish topshiriladi. Masalan: "Men kitobni ko'rdim. Kitob-bilim o'chog'I hisoblanadi." Yoki kitobning ko'rinishi aytadi.

2. O'yin metodlari

O'yinlar bolalarning qiziqishini oshiradi va o'rganilgan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Misollar:

"Kim ko'proq ot biladi?" o'yini. O'quvchilar o'z navbatida otlarni aytishadi. Eng ko'p so'z aytgan g'olib bo'ladi.

"Otlarni toifalash" o'yini. O'quvchilar otlarni turli toifalarga ajratishadi: hayvonlar, mevalar, jihozlar va boshqalar.

3. Interfaol ta'lim metodlari

O'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi metodlar samarador hisoblanadi.

Misollar: "Tushunchalar tarmog'i" usuli – bunda o'quvchilar ot so'z turkumini tushuntirish uchun fikr xaritalari yaratadilar.

"Bahs-munozara" usuli – o'quvchilar biror mavzu bo'yicha otlardan foydalanib fikr bildiradilar. Bu o'yinni guruhlariga ajratib, har bitta o'quvchi fikr aytadi va shu fikr doirasida otlarni qo'llab davom ettirishadi.[2]

Dars jarayoni namunasi

1. Kirish qismi. Salomlanishdan boshlanadi bu o'quvchilarda hurmat qilish mas'uliyatini yanada oshirishga ko'mak beradi.

O'quvchilarga savol berish: "Atrofimizdagi narsalar qanday nomlanadi?"

O'quvchilarning oldingi bilimlarini takrorlash va qo'shimcha kirgizish

2. Asosiy qism

O'quvchilarga ot so'z turkumi haqida tushuncha berish.

Mashqlar bajarish (so'zlarni ko'plik shakliga keltirish, otlarni guruhlariga ajratish).

O'yinlar orqali o'rganilgan mavzuni mustahkamlash.

3. Yakuniy qism

O'quvchilarga topshiriq berish: "Ertaga o'zingiz ko'chada, uyda yoki yon-atrofimizda ko'rgan yangi narsalar nomini yozib kelish."

Dars natijalarini muhokama qilish va xulosa chiqarish[3]

Ot so'z turkumini o'rgatishda uchraydigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish:

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun abstrakt tushunchalarni tushunish qiyin bo'lishi mumkin. Shu sababli:

O'qituvchi mavzuni aniq va tushunarli tushuntirishi lozim (real predmetlar orqali).

Nazariy tushunchalarni amaliy mashqlar bilan mustahkamlash kerak.

Qiziqarli va interfaol metodlardan foydalanish zarur 3-sinfda ot ustida ishlashning asosiy vazifasi fikr bayon qilishda otning kelishik formalalaridan ongli foydalanish va kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozishga o'rgatish hisoblanadi. Bu sinfda ot quyidagi izchillikda o'rganiladi. 1. Otlarning kelishiklar bilan turlanishi haqida ma'lumot berish; 2. Ko'plikdagi otlarning turlanishini o'rgatish; 3. Har bir kelishikning xususiyatlarini alohida o'rganish va u bilan bog'liq holda kelishik qo'shimchalarini yozilishi haqida ko'nikma hosil qilish.

Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi turlanishi haqida tushuncha berish bilan o'quvchilarga kelishik qo'shimchalari gapda so'zlarni bog'lash uchun xizmat qilishi, o'zbek tilidagi 6 kelishik, ularning nomi, so'roqlari, qo'shimchalari va joylanish tartibi tushuntiriladi.

O'quvchilar o'zlashtirgan grammatik bilimlarini imloni o'zlashtirishda foydalana olishlari uchun ishni bajarishda izchillikka katta ahamiyat beriladi. Bajarilgan ish yozib boriladi. O'quvchilar avval gapda ot bog'langan so'zdan shu otga savol beradilar va savolni qavs ichiga yozadilar: keyin so'roqqa qarab kelishikni aniqlaydilar, masalan, yashaydi (qayerda?) qishloqda (o'rin payt kelishigi) ular buni yaxshi o'zlashtirgandan so'ng mashq tez bajariladi, yozish talab etilmaydi.

Ko'plikdagi otlarning turlanishini o'rganishda nutqda ko'plikdagi otlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini takomillashtirish maqsadi ko'zda tutiladi. O'quvchilar suxbat yordamida bosh kelishikdagi otning so'rog'ini va batta predmetni bildirishini aytadilar. (nima? kitob, kim? o'quvchi). O'qituvchi agar shu ot 2 va undan ortiq predmetni bildirsa, qanday so'roqqa javob bo'lishini, qaysi kelishikni bildirishini so'raydi, ular qiynalmay javob beradi (nimalar? kitoblar, kimlar? - o'quvchilar). Xulosa chiqariladi: ko'plikdagi otlar bosh kelishikda kimlar? Yoki nimalar? So'rog'iga javob bo'ladi. O'quvchilar otlarning kelishiklar bilan turlanishi jadvalidan foydalanib, shu otlarni ko'plikda turlaydilar va ko'plik qo'shimchasi doim kelishik qo'shimchasidan oldin qo'shilishini, so'roqlarini bilib oladilar.[5]

Xulosa. Boshlang'ich sinflarda ot so'z turkumini o'rgatish o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, nutq va yozuv madaniyatini shakllantirish hamda umumiy grammatik

bilimlarni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Shu sababli, ta'lim jarayonida samarali metodlardan foydalanish muhimdir. O'yin metodlari, vizual darsliklar, interfaol texnologiyalar yordamida bolalarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortadi va natijadorlik oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 2021.
2. Mamatov A. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
3. Yo'ldoshev S. O'zbek tili nazariyasi va o'qitish metodikasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.
4. Hasanov N. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
5. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/ot-so-z-turkumini-o-rgansh-metodikasi>

